

**HUDUDIY JIHATDAN MAISHIY XIZMATLAR RIVOJLANISHINI  
BOSHQARISH**

*Yo'ldoshev Shuxratmirza Tursunboy o'g'li*

*Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi;*

*Tel: 97-245-07-77*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maishiy xizmatlar sohasini hududiy jihatdan rivojlantirishni boshqarishning nazariy va amaliy masalalari yoritilgan. Sohani tartibga solishning asosiy shakllari — prognozlar, maqsadli kompleks dasturlar va rejalashtirish hamda iqtisodiy regulyatorlar tizimi sifatida belgilangan.*

***Kalit so'zlar.** Maishiy xizmatlar, hududiy boshqaruv, norasmiy bandlik, rasmiy bandlik, transformatsiya mexanizmi, xizmatlarning minimal to'plami, uy-joy kommunal xizmatlar, transport xizmatlari, hududiy tafovutlar.*

***Аннотация.** В данной статье рассмотрены теоретические и практические аспекты управления развитием сферы бытовых услуг на региональном уровне. Основные формы регулирования отрасли определены как прогнозирование, целевые комплексные программы, планирование и система экономических регуляторов.*

***Ключевые слова:** бытовые услуги, региональное управление, неформальная занятость, формальная занятость, механизм трансформации, минимальный набор услуг, жилищно-коммунальные услуги, транспортные услуги, региональные различия.*

***Abstract.** This article examines the theoretical and practical aspects of managing the regional development of the household services sector. The main forms of regulation are defined as forecasting, targeted comprehensive programs, planning, and a system of economic regulators.*

**Keywords:** *household services, regional management, informal employment, formal employment, transformation mechanism, minimum service package, housing and коммунаl services, transport services, regional disparities.*

Maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishni tartibga solishning asosiy shakllari prognozlar ishlab chiqish, maqsadli kompleks dasturlar va rejalashtirishdan iboratdir. Ular bilan bir qatorda tegishli iqtisodiy regulyatorlar tizimi ham faoliyat yuritishi lozim. Tartibga solish jarayonining o'zi tegishli iqtisodiy mexanizm asosida ta'minlanadi; u maishiy xizmat ko'rsatishga nisbatan uning rivojlanish sur'atlari va nisbatlarini tahliliy hamda prognoz baholashlarni, shuningdek, tegishli regulyatorlar ta'sirini hisobga olgan holda tartibga solish imkoniyatini nazarda tutishi kerak. Shundan kelib chiqib, rivojlanishni tartibga solish mexanizmi tarkibiga tahliliy, prognoz va resurs bloklari, shuningdek, regulyatorlar tizimi bloki kirishi lozim.

Maishiy xizmatlarning strategik ahamiyati ularning iqtisodiy tizimdagi funksional roldan tashqari, xizmatlar bozorining rasmiy va norasmiy segmentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali ham namoyon bo'ladi. Maishiy xizmatlar sektori iqtisodiyotning o'ziga xos segmenti bo'lib, unda xizmatlar ko'rsatish jarayoni ko'pincha rasmiy va norasmiy shakllarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshadi. Ushbu sohada norasmiy bandlikning keng tarqalganligi bir tomondan soliq yuki va tranzaksiya xarajatlarining yuqoriligi bilan izohlansa, boshqa tomondan ijtimoiy aloqalar va o'zaro ishonch omillarining ustuvorligi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, institutsional muhitning rivojlanganlik darajasi hamda mehnat bozori sharoitlari rasmiy bandlikka o'tish jarayonini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Mazkur omillarning o'zaro ta'siri natijasida maishiy xizmatlar tizimida norasmiy va rasmiy faoliyat o'rtasida murakkab transformatsion jarayon yuzaga keladi. Iqtisodiy islohotlarning zamonaviy bosqichi hududiy jihatlarga tobora ko'proq e'tibor qaratishni talab etmoqda. Maishiy xizmatlarning o'ziga xosligini tavsiflovchi asosiy belgi — bu maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatining mahalliy xarakterga ega ekanligidir. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish

korxonalarining hajmi, soni va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi muayyan hududga xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi: aholining zichligi va jinsiy-yosh tarkibi, uning xarid qobiliyati, an'anaviy va milliy xususiyatlar, iqlim sharoitlari va hokazo. Shu munosabat bilan maishiy xizmat ko'rsatish hududiy xo'jalikning eng muhim tarkibiy qismi sifatida alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ushbu sohaning ijtimoiy-iqtisodiy roli o'zgargan. Xususan, maishiy xizmat ko'rsatish hududning takror ishlab chiqarish funksiyasida ishtirok etib, murakkab iqtisodiy sharoitlarda aholining yashab qolishiga ko'maklashadi. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik korxonalar tarmog'ining rivojlanishi aholini tadbirkorlik faoliyatiga rag'batlantiradi, qo'shimcha daromadlar olishga yordam beradi va hududda ish o'rinlari sonini ko'paytiradi.


Statistik ma'lumotlarga ko'ra, joriy 2026-yilning dastlabki ikki oyi mobaynida mamlakatimizda ko'rsatilgan pullik xizmatlarning umumiy qiymati 168,2 trillion so'mga yetgan. Poytaxtning ushbu hajmdagi ulushi taxminan 40 foizni tashkil qiladi. Hududlar bo'yicha taqsimotda Toshkent shahri 67 trillion so'm bilan birinchi o'rinda. Undan keyingi o'rinlarda Samarqand viloyati 12,5 trillion, Farg'ona viloyati 11,2 trillion va Toshkent viloyati 10,9 trillion so'mlik natija bilan qayd etilgan. Qolgan hududlarda ko'rsatkichlar 2,2 trillion (Sirdaryo) dan 8,7 trillion (Namangan) gacha bo'lgan oraliqda. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida kuzatilgan<sup>1</sup>. Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida savdo faoliyatining ulushi 30,9% ni (ya'ni 10601 birlik) tashkil etib, bu ko'rsatkich boshqa tarmoqlarga nisbatan ustunlik qiladi. Ushbu birliklarning 99,7% i (10565 tasi) kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keladi. 1-rasm.

---

<sup>1</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

### 1-rasm

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining 2025-yildagi (hududlar kesimida) holati<sup>2</sup> (mlrd.so'm hisobida)**



Maishiy xizmatlar sektorida norasmiy bandlikni shakllantiruvchi va uni kamaytirishga xizmat qiluvchi omillarni tizimli ravishda aks ettiradi. (2-rasm). Jumladan, rasmiy faoliyat bilan bog'liq yuqori xarajatlar, soliqlar va hujjatlashtirish murakkabligi norasmiy faoliyatni rag'batlantiruvchi asosiy iqtisodiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, kuchli ijtimoiy aloqalar, o'zaro ishonch va uzoq muddatli munosabatlar norasmiy bandlikning barqarorligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy mexanizm hisoblanadi.


Maishiy xizmatlar tizimida norasmiy va rasmiy faoliyatning o'zaro ta'sir va transformatsiyasi modelning o'ng tomonida aks ettirilgan omillar esa rasmiylashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi institutsional va iqtisodiy sharoitlarni ifodalaydi. Xususan, subsidiyalar, soliq imtiyozlari, xizmat platformalarining rivojlanishi hamda huquqiy kafolatlarning mavjudligi rasmiy bandlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mehnat bozori moslashuvchanligi va ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tishni rag'batlantiradi.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi malumotlari asosida. <https://siat.stat.uz/reports-filed/1210/meta-data>

Natijada, ushbu omillarning o‘zaro uyg‘unligi maishiy xizmatlar sektorida bandlik tuzilmasining o‘zgarishiga olib kelib, norasmiy bandlik darajasining pasayishi, rasmiy bandlikning ortishi hamda xizmatlar sifati va bozor shaffofligining yaxshilanishini ta’minlaydi. Maishiy xizmatlar xizmati korxonalari tarmog‘ining mavjudligi hudud aholisi tomonidan ularga bo‘lgan ehtiyojlarning qondirilish darajasini, xususan, ularning minimal to‘plami bo‘yicha qondirilishini belgilaydi.

### 2-rasm.

**Maishiy xizmatlar tizimida norasmiy va rasmiy faoliyatning o‘zaro ta’sir va transformatsiya mexanizmi<sup>3</sup>**



Xizmatlarning minimal to‘plamiga uy-joy-kommunal, transport va boshqa turdagi xizmatlar kiradi. Uy-joy-kommunal xizmatlarga uy-joy bilan ta’minlanganlik, isitish, sovuq va issiq suv ta’minoti, gaz va energiya ta’minoti kiradi. Isitish, sovuq va issiq suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarish, gaz va energiya ta’minoti xizmatlarning minimal to‘plamiga tarmoq me’yorlariga

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi, Alejandro Portes nazariy yondashuvi asosida.

muvofig, maishiy ehtiyojlar uchun suv, elektr energiyasi va gaz sarfi hamda uy-joyni isitish uchun zarur bo'lgan energiya sarfi asosida kiritiladi. Transport xizmatlari hajmini shakllantirishda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Bolalar va pensionerlarga nisbatan mehnatga layoqatli aholining safarlari sonining ko'pligi, ayollarning xo'jalik va madaniy maqsadlarda erkaklarga nisbatan ko'proq harakatlanishi, yirik aholi punktlari aholisi tomonidan bir nechta transport turlaridan foydalanilishi;

2. Pensionerlar va bolalar uchun belgilangan transport xizmatlari to'lovlari bo'yicha imtiyozlar.

Xizmatlarning boshqa turlari (aloqa xizmatlari va kiyim-kechak hamda poyabzalni ta'mirlash xizmatlari, sataroshxonalar, hammomlar, kirxonalar, kinoteatrlar va boshqalar) statistik kuzatuvlar ma'lumotlariga asoslanib, xizmatlarga bo'lgan umumiy xarajatlar hajmiga nisbatan foizlarda xizmatlarning minimal to'plamiga kiritiladi.

Sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar xizmatlarning minimal to'plamiga kiritilmaydi. Ba'zi mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq, ushbu xizmatlarning minimal hajmlari aholiga turli darajadagi byudjetlar hamda davlat ijtimoiy byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar tomonidan bepul taqdim etiladi.

Umuman olganda maishiy xizmatlar sohasini tartibga solish prognozlar, maqsadli dasturlar va iqtisodiy regulyatorlar tizimiga asoslanadi. Sohada rasmiy va norasmiy bandlik o'zaro bog'liq bo'lib, norasmiy faoliyat yuqori soliq yuki, tranzaksiya xarajatlari va ijtimoiy ishonch omillari tufayli keng tarqalgan. 2026-yil boshidagi statistikaga ko'ra, pullik xizmatlar hajmi 168,2 trillion so'mni tashkil etgan, hududlar kesimida Toshkent shahri yetakchi (67 trln), Sirdaryo eng past (2,2 trln). Xizmatlarning minimal to'plami uy-joy kommunal, transport va boshqa turlarni o'z ichiga oladi, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlari esa ushbu to'plamga kiritilmaydi.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi.  
<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>
2. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi malumotlari asosida.  
<https://siat.stat.uz/reports-filed/1210/meta-data>
3. Stef Adriaenssens, Tobias Theys, Dieter Verhaest And Nick Deschacht. Subsidized Household Services and Informal Employment: The Belgian Service Voucher Policy. Jnl. Soc. Pol. (2023), 52, 1, 85–106 © The Author(s), 2021. Published by Cambridge University Press.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 12.10.1995 yildagi 399-son qarori. <https://lex.uz/docs/-431651>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 16 fevral 2026-yildagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-21-son Farmoni.
6. Margaret G. Reid. Economics of household production. New York . JOHN WILEY & SONS, Inc. London: Chapman & Hall,1934